


ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 4, Issue 7 **2026**

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

4 JILD, 7 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 4, HOMEP 7

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 4, ISSUE 7



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№7 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2026-7>

Бош мухаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Matyakubov Umidjon Raximovich
(i.f.d., prof.)

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
(PhD., dots.)

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent

Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),

dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor

Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Grodno davlat universiteti Belorusiya

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'g'li

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Boltayev Abdurahim Amanovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Zoirov Erkin Xalilovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Buxoro davlat texnika universiteti

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun
Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации
основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением
№ 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: X. Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

TARIX

1. **Mo‘minjon Salayev Atabayevich**
BAQTRIYA HUIJATLARIDAGI TURKIY ISMLAR VA ULARNING TARIXIY TALQINI.....7
2. **Tilovboyeva Mardona Aybekovna**
O‘RTA OSIYODA TOSH DAVRINING ILK BOSQICHI XUSUSIYATLARI.....19
3. **Акратова Ф.А.**
СОЦИАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА В ОТНОШЕНИИ ЖЕНЩИН-РАБОТНИЦ ЛЕГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ (1946-1960 ГГ.).....22
4. **Файзуллаев Мансур Хайруллаевич**
СПЕЦИАЛИЗАЦИЯ КАРАКУЛЕВОДСТВА В ЖИВОТНОВОДЧЕСКИХ КОМПЛЕКСАХ ЮЖНОГО УЗБЕКИСТАНА И ЕЕ СИСТЕМНЫЕ ПРОБЛЕМЫ (1960-1980 ГГ.).....30
5. **Berdiyev Abduvali Abdug‘aniyevich**
QO‘NG‘IROTTLAR SULOLASI DAVRIDA XIVA XONLIGINING TASHQI SIYOSIY ALOQALARI: SHAKLLANISHI, YO‘NALISHLARI VA TARIXIY AHAMIYATI.....37
6. **Berdiyev Abduvali Abdug‘aniyevich**
XVIII-XIX ASRLARDA XIVA XONLIGINING ERON VA ROSSIYA BILAN DIPLOMATIK VA IJTIMOIIY-SIYOSIY MUNOSABATLARI.....47
7. **Matniyozov Sarvarbek Sanatbek o‘g‘li**
“XORAZM OKRUGIDA YIRIK MEHNATSIZ XO‘JALIKLARNI TUGATISH TO‘G‘RISIDA”GI DEKRETNING TAHLILI.....56
8. **Kenjayev Hasan Atanazarovich**
XV-XVI ASRLARDA SAROIY KUTUBXONASINI BOSHQARISH AMALIYOTI: “BADOYE’ UL-VAQOE” ASARIDAGI MANSUR MISOLIDA.....64
9. **Қадамбаев III.**
ЎРТА ЗАРАФШОНДА ТОШ ДАВРИ ТУРАР-ЖОЙЛАРИНИ ЎРГАНИЛИШ ТАРИХИ.....70
10. **Matkarimova Nazokat Maksudovna, Matnazarova Dilorom Radjabbaevna**
XORAZMLIKLARNING AN‘ANAVIY MADANIYATIDA OILA VA OILAVIY ETIKET.....73

IQTISOD

1. **Radjabova Mavluda Ergash Qizi**
MINTAQADA QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARINING EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISH XORIJ MAMLAKATLARI TAJRIBASI VA O‘ZBEKISTON SHAROITIDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI.....77
2. **Хусаинов Джахонгир Баходирович, Мухаммадсолиев Миродилжон Мирзохид угли**
КАСКАДНО-ЦИКЛИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ЦЕНООБРАЗОВАНИЯ И УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМ РИСКОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПРОГРАММ ВЫСШЕГО УЧЕБНОГО ЗАВЕДЕНИЯ.....84

3. Matyakubov Umidjon Raximovich, Qodirova Dilfuza Sodiqjon qizi, Kodirova Feruza Sodiqjonovna	
TURIZM XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING OBYEKTIV ZARURLIGI VA AHAMIYATI: STATISTIK TAHLIL VA KONSEPTUAL MODEL ASOSIDA.....	89

FILOLOGIYA

1. Adizova Surayyo Abduxoligovna	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KOGNITIV TERMINOLOGIYANING SHAKLLANISH TAMOIYILLARI (TIBBIY TERMINLAR MISOLIDA).....	97
2. Shoymardanova Dilfuza Baxtiyorovna	
ERKIN VOHIDOV ASARLARIDA SINTAKTIK PARALLELIZM VA POETIK INDIVIDUALLIK.....	103
3. Khudoyshekur Makhmudov	
TOURISM DISCOURSE AS AN OBJECT OF LINGUISTIC RESEARCH: A COMPARATIVE LINGUISTICS PERSPECTIVE.....	107

PEDAGOGIKA

1. Sh.E.Yakubova	
“OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABA QIZLAR IJTIMOIIY FAOLLIGINI KOMPETENTLIK ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI”..	112
2. Kalandarova Madina Baxadirovna	
IJTIMOIIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING TUG'RUQDAN KEYINGI DAVRDAGI AYOLLAR HAYOT SIFATI BILAN BOG'LIQLIGI.....	116
3. Kasimova Xulkar Atabayevna	
NOGIRON FARZANDLI TURLI YOSHDAGI ONALARNING PSIXOLOGIK FAROVONLIGI VA EMOTSIONAL O'ZINI-O'ZI NAZORAT QILISH O'RTASIDAGI KORRELYATSION BOG'LANISHLAR.....	120
4. Абибуллаев Арсен Редванович	
ОСОБЕННОСТИ ВОССТАНОВИТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕДУР СЕМИБОРОК В СТРУКТУРЕ ТРЕНИРОВОЧНОГО И СОРЕВНОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА.....	124
5. Шарипова Мадина	
ОРГАНИЗАЦИОННО-УПРАВЛЕНЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ АДАПТАЦИИ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА ДУАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ К СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	129
6. Pulatova Zulfiya Abduazizovna	
OLIIY HARBIY TA'LIM DA KURSANTLARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI BAHOLASH METODIKASINI HKT-INDEKSI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	136
7. Xasanboyev Javohir	
O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA JADID PEDAGOGIKASIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	145

IQTISOD

Radjabova Mavluda Ergash Qizi.

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

**MINTAQADA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINING EKSPORT
SAMARADORLIGINI OSHIRISH XORIJ MAMLAKATLARI TAJRIBASI VA
O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI**<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21980043>**Annotatsiya**

Maqolada qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksport samaradorligini oshirishda xorij mamlakatlari tajribalaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Unda mahsulot sifati, qayta ishlash, sovuq zanjir, sertifikatlash, logistika, raqamli savdo va bozorlarni diversifikatsiya qilish masalalari yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston sharoitida xorijiy tajribalarni qo'llash orqali eksport raqobatbardoshligini oshirish yo'nalishlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi eksporti, eksport samaradorligi, xorij tajribasi, logistika, agroklastar, sertifikatlash, raqobatbardoshlik.

**FOREIGN COUNTRIES' EXPERIENCE IN IMPROVING THE EXPORT
EFFICIENCY OF AGRICULTURAL PRODUCTS IN THE REGION AND
OPPORTUNITIES FOR ITS APPLICATION IN UZBEKISTAN****Annotation**

The article analyzes the use of foreign experience in improving the export efficiency of agricultural products. It focuses on product quality, processing, cold chain systems, certification, logistics, digital trade and market diversification. The article also highlights ways to increase Uzbekistan's export competitiveness by adapting international practices to national conditions.

Keywords: agricultural export, export efficiency, foreign experience, logistics, agro-cluster, certification, competitiveness.

**ОПЫТ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН ПО ПОВЫШЕНИЮ ЭФФЕКТИВНОСТИ
ЭКСПОРТА СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ПРОДУКЦИИ В РЕГИОНЕ И
ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО ПРИМЕНЕНИЯ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА****Аннотация**

В статье проанализированы возможности использования зарубежного опыта для повышения эффективности экспорта сельскохозяйственной продукции. Рассмотрены вопросы качества продукции, переработки, холодовой цепи, сертификации, логистики, цифровой торговли и диверсификации рынков. Также обоснованы направления повышения экспортной конкурентоспособности Узбекистана на основе адаптации зарубежной практики.

Ключевые слова: сельскохозяйственный экспорт, эффективность экспорта, зарубежный опыт, логистика, агрокластер, сертификация, конкурентоспособность.

Kirish va dolzarbligi

Bugungi globalashuv sharoitida qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishi, valyuta tushumlari ko'payishi, qishloq joylarda bandlikni ta'minlash hamda hududiy rivojlanishni jadallashtirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, meva-sabzavot, poliz, uzum, quritilgan meva, dukkakli mahsulotlar va qayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlari xalqaro bozorda yuqori talabga ega bo'lib, ularni samarali eksport qilish mamlakatning raqobatbardoshligini oshiradi.

O'zbekiston qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish bo'yicha sezilarli salohiyatga ega. Statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda O'zbekiston 2 036,2 ming tonna meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilgan, bu 2023-yilga nisbatan 15,8 foizga ko'p bo'lgan. Ushbu mahsulotlar eksporti qiymati 1 549,5 mln AQSh dollarini tashkil etgan. Asosiy bozorlar Rossiya, Qozog'iston, Pokiston va Afg'oniston hissasiga to'g'ri kelgan. 2025-yil yakunlari bo'yicha esa meva-sabzavot eksporti 2 121,2 mln AQSh dollariga yetib, 2024-yilga nisbatan 36,9 foizga oshgani qayd etilgan[1].

Biroq eksport hajmining oshishi har doim ham eksport samaradorligi yuqori degani emas. Eksport samaradorligi mahsulotning tannarxi, saqlash va tashish xarajatlari, sertifikatlash talablari, qayta ishlash darajasi, bozorlar diversifikatsiyasi va eksportdan olinadigan sof daromad bilan belgilanadi. Shu sababli xorij mamlakatlari tajribasini o'rganish va ularning ilg'or yondashuvlarini milliy sharoitga moslashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Metodlar va o'rganilganlik darajasi

Maqolada qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksport samaradorligini oshirish masalasi tizimli, qiyosiy va amaliy yondashuvlar asosida o'rganildi. Tadqiqot jarayonida xorijiy mamlakatlar tajribasi O'zbekiston sharoiti bilan solishtirildi, eksport jarayoni ishlab chiqarishdan xalqaro bozorgacha bo'lgan yagona zanjir sifatida tahlil qilindi. Shuningdek, SWOT tahlili orqali mavjud imkoniyat va muammolar aniqlanib, eksport samaradorligini baholashda eksport qiymati, qayta ishlash darajasi, logistika xarajatlari, mahsulot birligidan olinadigan daromad va bozorlar diversifikatsiyasi kabi ko'rsatkichlar asos qilib olindi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti bo'yicha ilmiy qarashlar asosan xalqaro savdo nazariyalari, raqobatbardoshlik konsepsiyasi, qiymat zanjiri yondashuvi va logistika samaradorligi nazariyalari bilan bog'liq. Klassik iqtisodiy nazariyalarda eksport samaradorligi mamlakatning tabiiy resurslari, iqlim sharoiti va ishlab chiqarish xarajatlari bilan izohlangan bo'lsa, zamonaviy yondashuvlarda mahsulot sifati, standartlarga moslik, brend, raqamli kuzatuv tizimi va logistika infratuzilmasi ustuvor ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi eksportida yuqori natijaga erishgan davlatlar faqat xom mahsulot sotish bilan cheklanib qolmaydi. Ular mahsulotni saralash, qadoqlash, sovitish, qayta ishlash, sertifikatlash va xalqaro bozorlarga moslashtirish orqali qo'shimcha qiymat yaratadi. Masalan, FAO sovuq zanjir tizimlari mahsulotning yangiligi va ozuqaviy sifatini saqlashda muhim omil ekanini ta'kidlaydi. FAO raqamli qishloq xo'jaligi yechimlari sifatida mobil to'lovlar, elektron maslahat xizmatlari, mahsulot sifatini baholash ilovalari, kuzatuv tizimlari va elektron savdo platformalarini eksport imkoniyatlarini kengaytiruvchi vositalar sifatida ko'rsatadi.

Jahon savdo tizimida oziq-ovqat xavfsizligi va fitosanitariya talablari ham alohida o'rin tutadi. WTO ma'lumotlarida sanitariya va fitosanitariya choralarini hamda texnik to'siqlar bo'yicha kelishuvlar xavfsiz oziq-ovqat savdosi va mahsulotlarni xalqaro standartlarga moslashtirishda muhim mexanizm sifatida ko'rsatiladi. Yevropa Ittifoqi bozoriga chiqariladigan meva-sabzavot mahsulotlari esa maxsus marketing standartlari va muvofiqlik tekshiruvlariga javob berishi kerak.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksport samaradorligini oshirish masalasi iqtisodiyot fanida xalqaro savdo, raqobatbardoshlik, qiymat zanjiri va logistika samaradorligi bilan bog'liq holda o'rganilgan. Jumladan, A. Smit va D. Rikardo xalqaro savdoda mamlakatlarning tabiiy va nisbiy ustunliklaridan foydalanish zarurligini asoslab bergan. Ularning qarashlari qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilishda iqlim sharoiti, yer resurslari, mehnat salohiyati va ishlab chiqarish xarajatlari muhim ahamiyatga ega ekanini tushuntirishga xizmat qiladi[2].

E. Heksher va B. Olin tomonidan ilgari surilgan omillar nisbatlari nazariyasida mamlakatlar o'zida nisbatan ko'p va arzon bo'lgan ishlab chiqarish omillariga tayangan holda eksportni rivojlantirishi kerakligi ta'kidlanadi. Bu yondashuv qishloq xo'jaligi eksportida yer, suv, mehnat va kapital resurslaridan samarali foydalanish zarurligini ko'rsatadi. M. Porter esa eksport raqobatbardoshligini faqat tabiiy imkoniyatlar bilan emas, balki infratuzilma, innovatsiya, klasterlar, sifat nazorati va ichki raqobat muhiti bilan bog'lab izohlaydi. Shu jihatdan uning qarashlari agroklastlar va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish tizimlarini rivojlantirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi[3].

B. Balassa eksport salohiyatini baholashda aniqlangan nisbiy ustunlik yondashuvini ishlab chiqqan bo'lib, bu usul orqali mamlakatning qaysi mahsulotlar bo'yicha xalqaro bozorda raqobatbardoshligini aniqlash mumkin. G. Gereffi, R. Kaplinskiy va M. Morris tadqiqotlarida esa eksport samaradorligi global qiymat zanjiri bilan bog'liq holda tahlil qilingan. Ularning fikricha, mahsulot qiymati faqat uni yetishtirish jarayonida emas, balki saralash, qadoqlash, saqlash, qayta ishlash, brendlash va sotish bosqichlarida ham shakllanadi. Bu yondashuv qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xom holda emas, balki qayta ishlangan va yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulot sifatida eksport qilish zarurligini asoslaydi[4].

J. Hamfri va H. Shmits esa eksport faoliyatida "yangilanish" jarayoniga e'tibor qaratib, korxonalar va hududlar xalqaro bozorda raqobatbardosh bo'lishi uchun mahsulot sifatini oshirish, ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirish, yangi bozorlarga chiqish va yuqori qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga o'tishi lozimligini ta'kidlaydi. Ushbu ilmiy qarashlar qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini rivojlantirishda faqat hajmni ko'paytirish emas, balki mahsulot sifati, qayta ishlash darajasi, logistika, sertifikatlash va marketing tizimini kuchaytirish muhimligini ko'rsatadi[5].

Natijalar va muhokama

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti samaradorligini oshirishda eng muhim masalalardan biri mahsulotni xalqaro bozor talablariga moslashtirishdir. Xom mahsulotni arzon narxda eksport qilish qisqa muddatda valyuta tushumini oshirishi mumkin, biroq uzoq muddatda yuqori foyda keltirmaydi. Samarali eksport modeli mahsulotni yetishtirish, qayta ishlash, sertifikatlash, brendlash va bozorlarga yo'naltirish bosqichlarini o'z ichiga olishi lozim (1-jadval).

1-jadval

Xorij mamlakatlari tajribasi va O'zbekiston uchun qo'llash imkoniyatlari

Mamlakat	Asosiy tajriba	Eksport samaradorligiga ta'siri	O'zbekiston uchun qo'llash imkoniyati
Niderlandiya	Issiqxona xo'jaligi, agroklastlar, logistika markazlari va ilmfan integratsiyasi	Kichik hududda yuqori hosildorlik va yuqori qo'shimcha qiymatga ega eksport shakllanadi. Niderlandiya 2023-yilda 123,8 mlrd yevrolik qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksport qilgan.	Xorazm, Farg'ona, Samarqand va Toshkent viloyatlarida zamonaviy issiqxona-klaster tizimlarini rivojlantirish mumkin.
Germaniya	Standartlashgan ishlab chiqarish, sifat nazorati, qayta ishlangan oziq-ovqat eksporti	Qishloq xo'jaligi eksporti yuqori texnologik qayta ishlash va logistika bilan bog'langan. Germaniya qishloq xo'jaligi eksporti 2024-yilda taxminan 99 mlrd yevroni tashkil etgan.	Meva-sabzavotni chuqur qayta ishlash, laboratoriya nazorati va eksport hujjatlarini raqamlashtirish zarur.
Belgiya	Port-logistika, oziq-ovqatni qayta eksport qilish va Yevropa	Mahsulotlar qisqa vaqt ichida yirik iste'mol bozorlariga yetkaziladi, tranzit va qayta eksportdan	O'zbekiston uchun quruqlikdagi logistika markazlari va "agro-hab"lar tashkil etish muhim.

	bozoriga tezkor yetkazib berish	daromad olinadi.	
Xitoy	Keng ko'lamli ishlab chiqarish, elektron savdo, sovuq zanjir va ichki bozor bilan bog'langan eksport	Fermer, qayta ishlovchi va eksportchi yagona raqamli tizim orqali bog'lanadi.	Eksportchilar uchun elektron savdo platformalari, mahsulot kuzatuv tizimi va onlayn kontraktlar joriy etilishi kerak.
Yaponiya	Brend, sifat, xavfsizlik, mahsulot imiji va eksport bozorlarini diversifikatsiya qilish	2024-yilda Yaponiya qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik mahsulotlari eksporti rekord darajaga — 1,507 trln iyenaga yetgan.	“Made in Uzbekistan” brendi ostida gilos, uzum, quritilgan meva, anor va qovun eksportini sifat belgisi bilan targ'ib qilish mumkin.
Singapur	Savdo-logistika markazi, qayta eksport, sovuq saqlash va raqamli bojxona tizimi	Mahsulot ishlab chiqarish cheklangan bo'lsa ham, logistika va qayta eksport orqali yuqori daromad olinadi.	O'zbekiston Markaziy Osiyoda agro-logistika markazi sifatida rivojlanishi mumkin.
Isroil	Tomchilatib sug'orish, suvni tejash, yuqori texnologiyali fermerlik	Resurs kam sharoitda yuqori hosildorlik va eksportbop mahsulot yetishtirish imkonini beradi.	Suv tanqis hududlarda tomchilatib sug'orish va aqlli monitoring tizimlarini kengaytirish lozim.

Jadvaldan ko'rinadiki, qishloq xo'jaligi eksportida ilg'or mamlakatlar tajribasining umumiy jihati shundaki, ular eksportni faqat ishlab chiqarish hajmiga bog'lamaydi. Ular sifat, standart, logistika, qayta ishlash, brend va bozor tanlashni yagona tizimga aylantirgan. O'zbekiston uchun ham aynan shunday yondashuv zarur: mahsulotni daladan eksport bozorigacha uzluksiz boshqarish eksport samaradorligini oshirishning asosiy sharti hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksport samaradorligini oshirishda xorij mamlakatlarida shakllangan ilg'or tajribalarni o'rganish muhim ahamiyatga ega. Mahsulot sifatini nazorat qilish, sovuq zanjir tizimini rivojlantirish, qayta ishlash darajasini oshirish, agroklastlar faoliyatini kuchaytirish, raqamli savdo platformalaridan foydalanish, brendlash, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish va eksport bozorlarini diversifikatsiya qilish kabi yo'nalishlar eksport natijadorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bunday yondashuvlar xorijiy amaliyotlarni O'zbekiston qishloq xo'jaligi eksporti sharoitiga moslashtirish imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi (2-jadval).

2-jadval

Xorij mamlakatlari tajribasi asosida qishloq xo'jaligi eksport samaradorligini oshirish yo'nalishlari

Yo'nalish	Xorij mamlakatlari tajribasi	Amaliy mexanizm	O'zbekiston uchun qo'llash imkoniyati	Kutiladigan natija
Mahsulot sifatini oshirish	Yaponiya va Germaniyada eksport mahsulotlari qat'iy sifat nazorati, sertifikatlash va xavfsizlik talablari asosida bozorga chiqariladi.	Mahsulotni daladan boshlab laboratoriya nazorati, standartlash va sertifikatlash tizimiga ulash	Eksportbop meva-sabzavotlar uchun hududiy sifat nazorati laboratoriyalarini ko'paytirish	Talabchan bozorlarga chiqish imkoniyati kengayadi, mahsulot narxi oshadi

Sovuq zanjir tizimi	Chili va Niderlandiyada mahsulot yig'ib olingandan keyin tez sovutiladi, maxsus omborlarda saqlanadi va sovutkichli transportda tashiladi.	Sovuq ombor, saralash markazi, sovutkichli transport va eksport terminalini yagona tizimga birlashtirish	Gilos, uzum, shaftoli, pomidor, bodring kabi tez buziladigan mahsulotlar uchun sovuq logistika tarmog'ini kuchaytirish	Mahsulot yo'qotilishi kamayadi, eksport sifati saqlanadi
Qayta ishlashni rivojlantirish	Germaniya, Belgiya va Niderlandiyada qishloq xo'jaligi mahsulotlari ko'pincha tayyor yoki yarim tayyor mahsulot shaklida eksport qilinadi.	Quritish, muzlatish, sharbat, konserva, pyure va qadoqlangan mahsulot ishlab chiqarish	Meva-sabzavotni xom holda emas, qayta ishlangan ko'rinishda eksport qilishni kengaytirish	Qo'shimcha qiymat oshadi, eksportdan tushadigan daromad ko'payadi
Agroklaster tizimi	Niderlandiya tajribasida fermer, ilmiy markaz, logistika, qayta ishlash va eksportchi o'zaro bog'langan tizimda ishlaydi.	Ishlab chiqaruvchi, qayta ishlovchi va eksport qiluvchi subyektlarni yagona zanjirga birlashtirish	Hududlarda meva-sabzavot, uzumchilik va poliz mahsulotlari bo'yicha ixtisoslashgan agroklasterlar tashkil etish	Ishlab chiqarish barqarorlashadi, eksport hajmi va sifati oshadi
Raqamli savdo platformalari	Xitoy va Singapurda eksport jarayonida elektron savdo, onlayn shartnomalar, raqamli kuzatuv va tezkor bojxona tizimlari keng qo'llaniladi.	Mahsulot, ishlab chiqaruvchi, narx, hajm va yetkazib berish shartlarini raqamli platformada ko'rsatish	Eksportchilar uchun yagona elektron agroeksport platformasini rivojlantirish	Xaridor topish osonlashadi, vositachilik xarajatlari kamayadi
Brendlash va marketing	Yaponiya va Chili mahsulot sifatini milliy yoki hududiy brend orqali xalqaro bozorda tanitishga katta e'tibor beradi.	Mahsulot nomi, kelib chiqish hududi, qadoqlash dizayni va sifat belgisi orqali bozorda ajralib turish	"Uzbek fruits", "Khorezm melon", "Samarkand grapes", "Uzbek dried fruits" kabi brendlarni shakllantirish	Mahsulotning xalqaro tanilishi kuchayadi, eksport narxi oshadi
Suv tejoyvchi texnologiyalar	Isroilda suv resurslari cheklangan bo'lishiga qaramay, tomchilatib	Suv sarfini kamaytiruvchi texnologiyalar, namlik sensorlari va aniq sug'orish tizimlaridan	Suv tanqis hududlarda tomchilatib sug'orish va zamonaviy agrotexnologiyalar	Hosildorlik oshadi, mahsulot tannarxi pasayadi

	sug'orish va aqlli monitoring orqali yuqori hosildorlikka erishiladi.	foydalanish	rni keng joriy etish	
Bozorlarni diversifikatsiya qilish	Chili, Niderlandiya va Yaponiya eksportda bir bozorga qaram bo'lib qolmaslik uchun turli mintaqalar bilan savdo aloqalarini kengaytiradi.	Eksport geografiyasini kengaytirish, yangi xaridorlar va savdo hamkorlarini izlash	Rossiya va Qozog'iston bilan bir qatorda Yaqin Sharq, Janubiy Osiyo, Yevropa va Sharqiy Osiyo bozorlariga chiqish	Eksport barqarorligi oshadi, tashqi xavflar kamayadi

Xorij tajribasi shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportida yuqori samaradorlikka erishish uchun faqat hosil hajmini ko'paytirish yetarli emas. Mahsulotni xalqaro standartlarga mos tayyorlash, qayta ishlash, sovuq zanjir orqali saqlash, raqamli savdo tizimiga ulash va kuchli brend sifatida bozorga chiqarish zarur. O'zbekiston ushbu tajribalarni milliy sharoitga moslashtirsa, eksportdan olinadigan daromadni oshirish va yangi bozorlarga chiqish imkoniyati kengayadi.

Xulosa va takliflar

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksport samaradorligini oshirish O'zbekiston uchun strategik ahamiyatga ega. Chunki bu yo'nalish nafaqat valyuta tushumini ko'paytiradi, balki qishloq hududlarida bandlikni oshiradi, qayta ishlash sanoatini rivojlantiradi va hududlarning iqtisodiy faolligini kuchaytiradi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, eksport samaradorligini oshirishda asosiy e'tibor mahsulot hajmini ko'paytirishga emas, balki mahsulot qiymatini oshirishga qaratilishi kerak.

Tahlil va natijalar asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- Hududiy agro-logistika markazlarini kengaytirish zarur. Har bir yirik eksportbop hududda sovuq ombor, saralash, qadoqlash, laboratoriya va bojxona xizmatlarini birlashtirgan markazlar tashkil etilishi kerak.
- Qayta ishlangan mahsulotlar ulushini oshirish lozim. Meva-sabzavotni faqat xom holda emas, balki quritilgan, muzlatilgan, sharbat, pyure, konserva va yarim tayyor mahsulot shaklida eksport qilish qo'shimcha qiymat yaratadi.
- Xalqaro sertifikatlash tizimini kuchaytirish kerak. GlobalG.A.P., HACCP, ISO, organik sertifikat va fitosanitariya talablariga javob beradigan mahsulotlar yuqori narxli bozorlarga chiqish imkonini beradi.
- Eksport geografiyasini diversifikatsiya qilish muhim. An'anaviy bozorlar bilan birga Yevropa Ittifoqi, Yaponiya, Janubiy Koreya, BAA, Saudiya Arabistoni, Hindiston va Xitoy bozorlariga chiqish bo'yicha alohida marketing strategiyasi ishlab chiqilishi lozim.
- Fermer va eksportchilar o'rtasida kooperatsiya kuchaytirilishi kerak. Mayda ishlab chiqaruvchilar mustaqil ravishda xalqaro bozorlarga chiqishda qiynaladi. Kooperatsiya orqali mahsulot hajmi, sifati va yetkazib berish barqarorligi ta'minlanadi.
- Raqamli kuzatuv tizimini joriy etish zarur. Mahsulot qayerda yetishtirilgani, qanday ishlov berilgani, qachon qadoqlangani va qaysi sharoitda tashilgani haqidagi ma'lumotlar xaridor ishonchini oshiradi.
- Milliy brend yaratish lozim. "Uzbek fruits", "Uzbek dried fruits", "Khorezm melon", "Samarkand grapes" kabi hududiy va milliy brendlar eksport mahsulotlarining xalqaro bozordagi tanilishini kuchaytiradi.

Umuman olganda, qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportida yuqori samaradorlikka erishish uchun O'zbekiston ishlab chiqarishdan eksportgacha bo'lgan barcha bosqichlarni yagona tizim sifatida boshqarishi kerak. Xorij tajribalaridan foydalanishning eng to'g'ri yo'li ularni ko'chirish

emas, balki milliy sharoitga moslashtirishdir. Ana shunda qishloq xo'jaligi eksporti oddiy mahsulot sotish jarayonidan yuqori qo'shimcha qiymat yaratadigan, barqaror daromad keltiradigan va xalqaro raqobatda ustunlik beradigan iqtisodiy mexanizmga aylanadi.

Iqtibos

- 1) O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi: 2025-yil yanvar–dekabr yakunlari bo'yicha press-reliz. E'lon qilingan sana: 21.01.2026.
- 2) Smith, A. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. London, 1776.
- Ricardo, D. On the Principles of Political Economy and Taxation. London, 1817.
- 3) Ohlin, B. Interregional and International Trade. Cambridge: Harvard University Press, 1933.
- Porter, M. E. The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press, 1990.
- 4) Balassa, B. "Trade Liberalisation and 'Revealed' Comparative Advantage." The Manchester School, 1965, Vol. 33, No. 2, pp. 99–123.
- Gereffi, G. "International Trade and Industrial Upgrading in the Apparel Commodity Chain." Journal of International Economics, 1999, Vol. 48, No. 1, pp. 37–70.
- 5)Kaplinsky, R., Morris, M. A Handbook for Value Chain Research. Institute of Development Studies, 2001.
- Humphrey, J., Schmitz, H. Governance and Upgrading: Linking Industrial Cluster and Global Value Chain Research. IDS Working Paper No. 120, Institute of Development Studies, 2000.

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

Maqolani tayorlashda qo'yiladigan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 6 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorda ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 6 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новой текст начинается со следующей строки, и статья состоит из 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиатства. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должен быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 6 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].